



CANADA



CANADA

AXBOROTNING IJTIMOIYLASHUVIDA YOSHLARNING O'RNI

Odil Egamov

*Shahrисабз Davlat Pedagogika Instituti Geografiya
va Iqtisodiy bilim asoslari yo‘nalishi 3-bosqich talabasi.*

Barchamizga ma’lumki insoniyat paydo bo’lganidan beri insonlar axborot olish, tarqarish va undan foydalanishga ehtiyoj sezib keladi. Vaholanki bu jarayon o’tmishda ancha sodda ko’rinishga ega edi. Kishilik jamiyatni rivojlanib, insoniyat taraqqiy etgani sari bu jarayon ancha murakkablashdi, axborotning jamiyatdagi o’rni va roli oshdi. Hatto XXI asrning “Axborot texnologiyalar asri”deb nom olgani ham bejizga emas. Bugun yurtimizda axborot sohasida ko’plab islohotlar amalga oshirilmoqda. Yurtboshimiz ta’kidlaganlaridek: ”Fuqarolarning axborot sohasidagi huquq va erkinliklarini ta’minalash masalasi insonning axborot olish, axborot va o’z shaxsiy fikrini tarqatish huquqi hamda erkinligini o’zida mujassam ertgan bo’lib, bu yurtimizda demokratik jamiyat asoslarini barpo qilishning muhim sharti, ta’bir joiz bo’lsa tamal toshi hisoblanadi.”deb aytib o’tadi.

Axborot kommunikatsiyalarining rivojlanishi nafaqat insonlar balki butun dunyo ahолisi uchun masofalarni qisqartirib, axborotni istalgan joydan turib uzatish, qabul qilish imkonini va yana to’siqlarsiz chegaralarsiz harakat qilshga, jaxon sivilizatsiyasi bilimlarini o’rganishga yo’l ochib berdi. Ilgarilari insonlar fan, ta’lim sohasi uchun ayrim hududlardagina joylashgan ARMdagi resurslardan foydalangan bo’lsa, hozirda bu resurslarga internet tarmog’ini ham qo’shishimiz mumkun.

Statistik ma’lumotlarga ko’ra :AKT vaziri SHerzod SHermatov O’zbekistonda internetdan foydalanuvchilar soni 31 mln dan oshganini ma’lum qildi.Ulardan 29,5 mln nafari mobil internet orqali tarmoqqa ulanadi.Vazir shuningdek :Xalqaro internet kanalga ulanish tezligi so’ngi 2 yilda 2,6 barobarga oshib , 3200 Gibt\s ga yetganini qayd etadi.SHuningdek so’ngi 2 yilda 22300 ta qo’shimcha tayanch stansiyalar o’rnatilib ularning umumiyligi soni 54000 tani tashkil etmoqda.Respublika bo’yicha mobil aloqa qamrovi darajasi 99%ga keng palosali mobil internet qamrovi esa 98%ga yetganini qayd etib o’tadi.Bundan ko’rinib turibdiki mamlakatimizda axborot resurslasri yani internetdan foydalanuvchilar soni ancha yuqori.Hozirgi kunda internet tarmog’idan turli habarlarni olish va tarqatish yoshlarimiz orasida axborot xurujlarini keltirib chiqarmoqda.Bu haqida prezidentimiz quyidagi fikrlarni bildirib o’tgan:”SHuni unutmaslik kerakki, bugungi kunda inson ma’naviyatiga qarshi yo’naltirilgan, bir qarashda arzimas bo’lib tuyiladigan kichkinagini ham axborot olamidagi globallashuv shiddatidan kuch olib, ko’zga ko’rinmaydigan, lekin zararini hech narsa bilan qoplab bo’lmaydigan ulkan ziyon yetkazishi mumkin” Aynan shuning uchun ham jamiyatimizda sodir bo’layotgan xurujlardan uchinchi renesans poydevorlari bo’lgan yoshlarni himoya qilish zarur.

So'ngi yillarda yoshlarimiz orasida axborotlarni to'g'ridan to'g'ri qabul qilishi odatiy holga aylangan . Bu esa yoshlarimiz orasida "Axborot madaniyati "yani "Infoetika"ning shakllanmaganligini bildiradi.Hozirda axborot vositalari yoshlarimiz ongiga ijobiy va salbiy tomonlama ta'sir etmoqda.

IJOBİY TOMONLARI:

- 1 Yoshlarimizning dunyoqarashini shakllanishiga yordam bermoqda
- 2 Obektiv va Negativ axborotlarni qabul qilib,ularni tahlil qilishga o'rgatmoqda
- 3 Masofadan turib dunyoning istalgan oliygohida tahsil olish imkonini bermoqda
- 4 CHegaralarsiz harakatlanish imkoniyatini yaratmoqda

SALBIY TOMONLARI:

- 1 Yoshlarimizni turli ekstrizim va terroristik oqimlar ta'siriga tushib qolishiga sabab bo'lmoqda
- 2 G'arb yashash tarziga hos,lekin o'zbek mentalitetiga zid g'oyalar,qarashlarning yoshlar ongiga ta'siri
- 3 Pornografik saytlar
- 4 Tekshirilmagan axborotlar (bo'xtan,tuhmat) va hakazo...Bularning barchasi axborotlarning ijobiy va salbiy tomonlariga misol bo'la oladi.

O'zbekiston Respublikasi prezidenti SH Mirziyoyev"Biz yoshlarga oid davlat siyosatini hech og'ishmasdan, qat'iyat bilan davom ettiramiz,balki bu siyosatni eng ustuvor vazifamiz sifatida bugun zamon talab qilayotgan yuksak darajaga ko'taramiz. Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan ,yuksak intelektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib dunyo miqiyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz"deb ta'kidlaganlaridek: Yoshlarimizning ishtimoiy hayotida yoshlarga havf tug'diruvchi omillarga qarshi kurashish nazarda tutilan desak mubolag'a bo'lmaydi.

Shuni aytib o'tishim kerakki: Bugungi kunda axborot omili har qanday quroldan kuchli ekanligi ,bunday omilni oldini olish uchun esa yoshlarimiz orasida mafkuraviy immunitet , fikriy dunyoqarashni shakllantirish kerakligi, ona vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash joiz ekanligini aytmoqchiman.

FOYDALANILGAN MANBALAR:

- 1.Kun.uz.
- 2.Daryo.uz.
- 3.Qalampir.uz.
- 4.Xabar.uz.